

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

**QO'RQUVNI QO'ZG'ATUVCHI OMIL SIFATIDA GOTIKA
UNSURLARINING MUTANOSIBLIGI (E.T.A.HOFFMANNING "SHAYTON
VASVASALARI" ASARI MISOLIDA)**

Karimova Gulbahor Nabijon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti doktoranti

Email: gulbaxor@gmail.com

+998939415652

Annotatsiya: Ushbu maqola gotik roman (Gotik hikoya) qo'rqinchli, fantastik, hayoliy voqealar tasviri orqali inson his-tuyg'ularini harakatga keltiruvchi va kuchaytiruvchi fantastik janrga bag'ishlangan bo'lib, ushbu janrni yanada qat'iy tabaqalashtirilgan tushunchasini ishlab chiqish uchun gotika romanining adabiy terminologiyasida janr tavsiflariga aniqlik yetishmasligiga qarshi turish tub maqsadlardan biri ekanligini anglangan holda mavzuni atroflicha o'rganib chiqildi. Bu, shuningdek, ma'rifat va zamonaviylik o'rtasidagi mashhur chegara hodisasi sifatida gotik roman unsurlarining ahamyatini qo'rquv qo'zg'atuvchi omil sifatida E.T.A. Hoffmannning "Die Elixiere des Teufels" (1815), (Shayton vasvasalari) asari misolida tushunishga ko'maklashadi. Bundan tashqari gotik roman elementlarini hamda ularni adabiyotga kiritish usullarga alohida to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: gotika, janr, gotik roman, poetika, konvensiya, gotik roman elementlari, paradoks, kompozitsiya, romantik elementlar.

**ЭЛЕМЕНТЫ ОТРАЖАЮЩИЕ МОТИВ СТРАХА В ГОТИЧЕСКИХ
РОМАНАХ (НА ПРИМЕРЕ «ДЬЯВОЛЬСКИХ ЭЛИКСИРОВ» Э.Т.А. ГОФМАНА)**

Аннотация: Данная статья посвящена готическому роману (готическому рассказу) - фантастическому жанру, волнующему и усиливающему человеческие эмоции посредством изображения страшных, фантастических, фантастических событий. С целью выработки более строго дифференцированного понимания этого жанра тема изучалась подробно, осознавая, что одной из основных целей является противодействие нечеткости жанровых описаний в литературной терминологии готического романа. Он также использует элементы готического романа как фактор, вызывающий страх, например, знаменитое пограничное событие между Просвещением и современностью, пример работы Э.Т.А Гофмана «Эликсиры дьявола» помогает понять ее важность. Кроме того, специально обсуждались элементы готического романа и способы внедрения их в литературу.

Ключевые слова: готика, жанр, готический роман, поэтика, условность, элементы готического романа, парадокс, композиция, романтические элементы.

ELEMENTS REFLECTING THE MOTIVE OF FEAR IN GOTHIC NOVELS (EXAMPLE FROM E.T.A. HOFFMAN'S "THE DEVIL'S ELIXIRS")

Annotation: This article is devoted to the Gothic novel (Gothic story), a fantasy genre that stirs and intensifies human emotions through the depiction of frightening, fantastic, and imaginary events. In order to develop a more strictly differentiated understanding of this genre, one of the fundamental goals of this topic was to counteract the lack of clarity in the literary terminology of the Gothic novel. It also helps to understand the importance of Gothic novel elements as a fear-inducing factor in the case of E.T.A. Hoffmann's "Die Elixiere des Teufels" (1815), (The Devil's elixirs). In addition, special attention is paid to the elements of the Gothic novel and the methods of their introduction into literature.

Key words: gothic, genre, gothic novel, poetics, convention, gothic novel's elements, paradox, composition, romantic elements.

KIRISH

So‘nggi yillarda nafaqat dunyo adabiyotida, balki kino, musiqa va moda olamida ham gotika uslubi haqida eshitib qolamiz. Gotika adabiyoti g‘amgin manzaralar, voqea va hodisalarni ataylab kuchaytirish yoki kichraytirish orqali kulgili tarzda buzib ko‘rsatuvchi, g‘ayritabiiy unsurlari hamda romantik elementlari bilan ajralib turadigan o‘ziga xos uslub sifatida ta’riflanadi. Gotik roman mualliflari o‘z asarlarida kitobxonda qo‘rquv va dahshat tuyg‘ularini qo‘zg‘atadigan turli elementlardan foydalanishadi.[1.272] Ushbu nazariyalarni inobatga olgan holda E.T.A.Hoffmannning “Shayton vasvasalari” asarida qo‘rquvni qo‘zg‘atuvchi omil sifatida gotik unsurlarning mutanosibligini ko‘rib chiqish asosiy vazifa etib belgilandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Gotik romanlar XVIII asrning katta ahamiyatga molik madaniy va adabiy hodisasi. Bu janr 1764 -1820- yillar oralig‘ida o‘zining eng gullagan davrini yashab, butun Yevropada mashhurlikka erishdi. Gotik romanlar bo‘yicha dunyodagi yetakchi olimlar o‘tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab o‘z izlanishlarini olib borishgan. Yozuvchi Conrad, Horst o‘zining „Die literarische Angst. Das Schreckliche in der Schauerromantik und Detektivgeschichte“ (1974) nomli asarida gotik romanlarda qo‘rquv motivini qo‘llanilishi ularning vazifalari haqida yetarlicha ma’lumotlarni mujassamlashtirgan. Nemis adabiyotshunosi Heinz-Georg Held “Schnellkurs Romantik“ (2000) nomli asariga gotika janrining o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi nazariyalarini kiritgan. Maqolada mashhur nemis yozuvchisi E.T.A.Hoffmannning “Shayton vasvasalari” asari gotik roman unsurlarini tahlil qilish uchun tanlab olinib, asardan keltirilgan parchalar orqali gotika elementlarini tushunish bir qadar soddalashtirilganini eslatib o‘tamiz.

Maqolada gotik roman unsurlari bosqichma-bosqich o‘rganib chiqilib, shu izlanishlar yuzasidan natija va xulosalar taqdim etildi. E.T.A.Hoffmannning “Shayton vasvasalari” asari misolida gotik roman unsurlari o‘rganilib chiqildi, shuningdek, ularning asardagi ta’siri, vazifasi tahlil qilindi. Gotika unsurlarni qo‘llanishi, ularning qo‘rquv hissi darajasini oshirish usullarini taqdim etildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Gotik roman unsurlari tarkibiga kiruvchi chet ellik yoki adabiy begona shaxs “Shayton vasvasalari” asarida o‘ziga xos tarzda tasvirlangan bo‘lib, qahramon tilidan bu obrazlarga shunday ta’rif keltiriladi:

“So ist es mir, als hätte ich selbst einmal in der öden Kirche die wunderbare Gestalt eines ernsten Mannes gesehen und es sei eben der fremde Maler gewesen, der in uralter Zeit, als eben die Kirche gebaut, erschien, dessen Sprache niemand verstehen konnte und der mit kunstgeübter Hand in gar kurzer Zeit die Kirche auf das herrlichste ausmalte, dann aber, als er fertig worden, wieder verschwand.”[2.3]

Tasvirda qahramon tomonidan cherkovda ajoyib ko‘rinishdagi jiddiy odamni ko‘rilgani, u notanish rassom bo‘lib, cherkov qurilayotgan paytda paydo bo‘lganini, uning tilini hech kim tushunolmagan bo‘lsada, mahorat bilan qisqa vaqt ichida u cherkovni eng ajoyib tarzda bo‘yagani, ammo barchasini tugatgandan so‘ng, yana g‘oyib bo‘lganini aks ettirilgan. Gotika fantastikasida begona odam bilan bog‘liq, xoh ajralib turadigan obraz, xoh qandaydir najot izlayotgan sarson inson yoki har qanday sababga ko‘ra asosiy voqealardan tashqariga chiqarilgan shaxs tasvirlanadi, biroq asar kompozitsiyasining nozik ipi shu adabiy begona bilan bog‘lanib, barcha syujet tizimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi, ammo sahnadagi odatiy o‘zgarishlardan tashqarida tasvirlanadi. Odatda asarga bunday obrazlar yovuzlik, dahshat orasidagi yaxshilik va go‘zallikning nozik nishonasi sifatida kiritiladi.[3] “Shayton vasvasalari asarida muallif barcha sodir etilgan yovuzliklarni shu obraz bilan bog‘lab, tanlangan sahnalarda o‘zining rasmlari orqali xotirani jonlantirish vazifasini bajaradi. Shunday qahramonlardan yana biri asarda shunday tasvirlanadi: *“So gedenke ich ferner noch eines alten, fremdartig gekleideten Pilgers mit langem grauen Barte, der mich oft auf den Armen umhertrug, im Walde allerlei bunte Moose und Steine suchte und mit mir spielte, unerachtet ich gewiß glaube, daß nur aus der Beschreibung meiner Mutter sich im Innern sein lebhaftes Bild erzeugt hat.”*[2.3] Yozuvchi begona shaxsni qahramon xotirasida g‘alati tarzda kiyingan keksa uzun oq soqolli ziyoratchi sifatida gavdalantirib, aniqroq bo‘yoq berish uchun, bir necha harakatlarni kiritadi. Masalan; u qahramonni bolaligida qo‘llarida ko‘tarib atrofni aylantirishi, o‘rmondan rang-barang moh toshlarni qidirishi, u bilan o‘yinlar o‘ynashi bilan bog‘liq sahnalar. Biroq asarda har bir obraz o‘z vazifasiga ega, shu topshiriq bajarilmagunga qadar, u o‘zining mavhumlik holatini saqlab qolaveradi, chunki har bir unsur butun bir kompozitsiyani tashkil etadi. Bu obraz vositasida asarga bosh qahramonning qonli kelajak bashorati kiritilib o‘tilgan. Balki shu orqali muallif kitobxon qiziqishini uyg‘otishni maqsad qilgandir. Ziyoratchi asarda begona shaxs sifatida gavdalantirilgan, biroq qo‘rquv qo‘zg‘atuvchi sifatida shakillantirilmagan. Deyarli

barcha gotik romanlarda bu unsur qo‘rquv omili emas, balki butun umr sargardonlikka mahkum inson timsolida yaratiladi. Muallif voqealar rivojiga ta‘sir qilish uchun ham shu obrazdan foydalangan. Odatda istalgan sahnani yaratish uchun uni sodir bo‘lishi mumkinligiga ishora qilish yozuvchilar qo‘llashi mumkin bo‘lgan usullardan biridir.

Gotik romanlarda tez-tez qonli sahnalarga duch kelish oddiy holat sanaladi. Eng muhim element ham qon, asosan bu gotika asarlarida inson holatining paradoksini³⁴¹ anglatuvchi ko‘zga ko‘ringan ramz bo‘lib, qon nafaqat hayotni, balki o‘limni, aybni (qotillik) va aybsizlikni (qutqaruvchi sifatida) ifodalaydi.[3] “Shayton vasvasalari” asarida qonga ilk bor bosh qahramonning Knyagina bilan uchrashuvi sahnasida murojat qilinib, bu holat asarda shunday ifodalaniladi: *“Die Fürstin ließ das nicht zu; es fand sich, daß das diamantne Kreuz, welches die Fürstin auf der Brust trug, mich, indem sie heftig mich an sich drückte, am Halse so stark beschädigt hatte, daß die Stelle ganz rot und mit Blut unterlaufen war.”*[2.5] Parchada yoritilishicha Knyagina bo‘ynidagi olmos xoch qahramonni bag‘riga bosilganda, shunchalik uni qattiq shikastlagandiki, bu joy butunlay qizarib, qonga botgandi. Gotik romanlarda ko‘pincha qon hayotni, o‘limni yoki aybni ifodalashi haqida aytib o‘tgan edik, biroq muallif o‘z asarida qon bilan bo‘g‘liq birinchi sahnada qahramonga yetkazilgan og‘riq qanchalik kuchli ekanligini ushbu unsur bilan ifodalagan, bu bilan tushunish mumkinki, qon elementi gotik romanlarda og‘riq holatining darajasini ham ko‘rsatadi. Bundan tashqari asarda har bir predment yoki obraz o‘z vazifasiga ega ekanligi ma‘lum. Asarda olmos xoj bilan yuzaga kelgan jarohat qahramonning mahsus belgisiga aylanadi, chunki gotika adabiyotda ta‘kidlanganidek, obraz turli qiyofada namoyon bo‘lishi bilan boshqalaridan farqlidir. Asliyatni ifodalash uchun bunday belgilarni mualliflar tomonidan kiritilib, bu uni boshqasidan farqlay olish uchun foydalaniladi.

Ma‘lumki, gotika adabiyotida dahshatli, qonli sahna ko‘rinishlari syujetni tashkil etuvchi asosiy unsurlardandir. Biroq bu gotik romanlar romantika elementlaridan butunlay voz kechgan degani emas. Aksariyat gotik romanlarda gotika janri qoidalariga muvofiq xususiyatlardan tashqari, romantika elementlari ham mavjudligini yana bir bor eslatib o‘tsak. Asarda romantika unsurlari sifatida kuchli sevgi, ko‘pincha tasodifiy his-tuyg‘ular, hayot yoki o‘lim majburiyatlari aks ettiriladi. Ko‘pincha bu sevgi qahramonning ilk muhabbati sifatida tasvirlanadi. Ushbu tuyg‘u qahramonning ruhi tanasini tark etgunga qadar u bilan yashaydi, shuning uchun gotik roman qahramonlarining eng ulug‘vor fazilati vafodorligi deb hisoblash mumkin. “Shayton vasvasalari” asarida ham ushbu elementdan mahorat bilan foydalanilgan. Bosh qahramon taqvodor bo‘lishiga qaramasdan o‘zi uchun notanish tuyg‘uga duch keladi. E.T.A. Hoffman o‘z asarida romantik sahnani shunday ko‘rinishda taqdim etadi: *„Sie war sehr reizend gekleidet, sie kam mir schöner als je vor, es war, als zöge mich eine unsichtbare unwiderstehliche Gewalt zu ihr hin, und so kam es denn, daß ich, ohne selbst zu wissen wie, mich immer ihr nahe befand, jeden ihrer Blicke, jedes ihrer Worte begierig aufhaschte, ja mich so an sie drängte, daß*

³⁴¹ (qadimgi yunoncha: παράδοξος — „kutilmagan“, „g‘alati“) — ko‘pchilik tomonidan qabul etilgan an‘anaviy fikr, tajribaga o‘z mazmuni yoki shakli bilan keskin zid bo‘lgan, kutilmagan mulohaza, muhokama.

wenigstens ihr Kleid im Vorbeistreifen mich berühren mußte, welches mich mit innerer, nie gefühlter Lust erfüllte. “[2.6]

Tanlangan parchaning ma’nosidan shu anglash mumkin: “Ayol juda jozibali kiyingandi, u qahramonimiz qarshisida har qachongidan go’zalroq namoyon bo’ladiki, uni ko’rinmas qarshi turib bo’lmas kuch go’zal xonim tomon yetaklaydi, u o’zi sezmay unga yaqinlashadi, har bir so’zi, nigohini ishtiyoq bilan kuzatadi, u ayolning kuylak etaklari unga tegish darajasigacha yaqinlashdiki, bu holat uning qalbini ichki hech qachon his qilmagan zavq bilan to’ldirardi.” Muallifning asosiy yutug’i so’zlarni mahorat bilan tanlay olgani, hamda ularning bir-biriga mutanosibligidadir. Ramantika unsurlarini asarda gotikaga xos uslubda yuksak did va ulug’vorlik bilan tasvirlangan, ammo gotik romanlarda bunday unsurlar sof tuyg’ular zamirida shakllantirilmaydi yoki axloqiy me’yorlar chegarasidan chiqqan holda sahnalashtiriladi. Bu asarda esa bu tuyg’u taqiqlangan meva kabi aks ettirilib, yozuvchi endigina ruhoniylikka qadam qo’yish arafasidagi qahramon qalbiga ilk sinov tarzda shunday notanish hisni kiritadi. Bu usul gotika janrining shavqatsizligiga ishora qiladi, balki ramantika unsurlari bilan ham qo’rquv aks ettirish mumkin bo’lgan sahnalarni shakllantirish mumkinligini ko’rsatadi.[4.33] Muallif shu tuyg’uni qahramon qalbiga singdirish orqali shu darajada qo’rquv iskanjasiga soladiki, u hatto o’z joniga qasd qilmoqchi ham bo’ladi.

Gotika adabiyotida kuchli axloqiy yopirilish muhim unsur sanalib, E.T.A.Hoffmannning o’z asarda shunday axloqiy nazariyalarini eng go’zal uslubda shakllantira olgan. Bunga misol sifatida bir matnni ko’rib chiqsak. “*Der Mensch vermag Stärke und Kraft im Glauben von dem höheren Geiste zu empfangen, den er im Innersten des Gemüts um Trost und Beistand anrief. Ja, diese in ihm erweckte höhere geistige Kraft wird selbst Leiden des Körpers zu überwinden vermögen.*”³⁴² Tanlangan parchada inson oliy ruhdan e’tiqoddagi kuch va quvvatni olishga qodirligi, bu ruhni esa ongining qaridan tasalli va ko’mak uchun chorlashi, uning ichida uyg’ongan bu yuksak ruhiy kuch jismoniy azob-uqubatlarni ham yenga olishi ta’kidlangan. Darhaqiqat inson ichki borlig’ida mavjud bo’lgan oliy ruhdan imon uchun kuch oladi, aql tasalli berib, qo’llab-quvvatlaydi, shu orqali har qanday muammoga yechim topiladi. Bunday farazlar gotik romanlarni bezovchi ziynatdir.

XULOSA

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, gotik roman unsurlari asarlarda qo’rquv motivini aks ettirishda muhim ahamyatga ega. Gotik romanlarda momaqaldiroq kabi dahshatli tabiat hodisalari, shuningdek, oy nuri yoki tuman ostida cho’milgan tungi manzaralar, bepayon ochiq joylar va qorong’u o’rmonlar ham syujetning asosiy unsurlari sanaladi. Gotik adabiyotda bu kabi motivlar ayniqsa keng tarqalgan.[5.18] Gotik roman elementlari aks ettirilganda asarlarda qanday ma’no va mazmun kasb ettirishini E.T.A.Hoffmannning “Shayton vasvasalari” asarini tahlil qilish natijasida taqdim etildi.

³⁴² E.T.A. Hoffmann. Die Elixiere des Teufels. 1815.s-13

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kevin Ryan, Van Helsing. Harper Collins Entertainment. – 2004. – 272 p.
2. E.T.A. Hoffmann. Die Elixiere des Teufels. 1815. s-3-6
3. WordPress.com. Elements of the Gothic
4. Conrad, Horst: Die literarische Angst. Das Schreckliche in der Schauerromantik und Detektivgeschichte. Düsseldorf: Bertelsmann Universitätsverlag 1974. s-33
5. Felix Krämer (Hrsg.): Schwarze Romantik von Goya bis Max Ernst. Katalog zur Ausstellung im Städel Museum Frankfurt, 26. September 2012 bis 20. Januar 2013. Hatje Cantz Verlag s.18